

## MEVA KO`CHATLARINI EKISHNING O`ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

### ОСОБЕННОСТИ ПОСАДКИ ПЛОДОВЫХ САЖЕНЦЕВ

#### SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PLANTING FRUIT SEEDLINGS

**Mukimov Zoxidjon Alijonovich**

*Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi.*

**Annotasiya:** *Kelgusida sifatli va mo'l hosil olishning asosiy agrotexnik tadbirlaridan biri tanlangan meva ko'chatini ekishga qadar sifatli tashkil etish juda muhim hisoblanadi. Buni amalga oshirishda albatta bilim va tajriba tayangan holda amalga oshirish zarur bo'ladi.*

**Kalit so'zlar:** *ko'chat, daraxt, bog', meva, hosil, qalamcha, payvandtag, unumdor, danak, nihol.*

Ko'chatzor uchun joy tanlashda ajratilgan maydon sho'rlanmagan, unumdor va magistral yo'lga yaqin bo'lishi lozim. Natijada, ko'chatzorlarni qishloq xo'jalik mashinalari, o'g'itlar bilan ta'minlash va yetishtirilgan ko'chatlarni realizatsiya qilish ishlari ham yengillashadi. Shu bilan birga xo'jalik yetarli darajada suv bilan ta'minlangan, sizot suvi kamida 2 m dan past bo'lishi zarur.

Ko'chat yetishtiruvchi xo'jaliklar mevali ko'chatlarni sifatli tayyorlash uchun shakillangan quyidagi bo'limlarga ega bo'lishi zarur:

1. Kurtak va boshqa xil payvandlar uchun qalamchalar tayyorlanadigan maxsus ona bog'.
2. Qalamchadan ko'payadigan mevalar uchun ona bog'.
3. Meva urug'ini sepib payvandtaglar yetishtiradigan bo'g'.
4. Qalamchadan ko'payadigan va payvandtaglar uchun ona bog'.
5. Payvandtaglar yetishtiradigan bo'g'.

Danakli mevalarning danaklari to'g'ridan-to'g'ri niholzorlarga ekiladi, olma, behi, nok urug'ini esa dastlab gektariga 35–40 s hisobidan urug' sepib, bir yil nihol yetishtirilib, kelgusi yili ularni niholzorlarga siyrak qilib ekiladi, dala ko'chatzorlari, pakana payvand ko'chatlar yetishtiriladigan bo'lim, ixota va ko'chatzorlar uchun manzarali daraxt ko'chatlari yetishtiriladigan bo'lim, payvandtaglar yetishtiriladigan niholzor.

Bog'larga ekiladigan bir yashar mevali daraxt ko'chatlari defoliatsiya qilingandan keyin oradan 8–10 kun o'tgach, maxsus ko'chat qaziydigan plug yordamida oktabr oyining oxiri, noyabr oyining boshida qaziy boshlanadi. Ko'chat qazishdan oldin ko'chatzor sug'oriladi va yer yetilishi bilan Jon Deere 50 rusumli traktorga osilgan PN-3-35 rusumli plug yordamida ko'chat qazishga kirishiladi. Ko'chrilayotgan ko'chatlarni sifatli qazib olish uchun plug to'g'ri sozlangan bo'lishi kerak. Aks holda yetishtirilgan ko'chatlar shikastlanib,

ekilganda ko`karib ketishi qiyinlashib ketadi. Bunda ko`chatlar ildizining uzunligi 28-35 sm bo`lishi zarur. Qazib olingan ko`chatlar bir yerga to`plangach, ularning ildizi ketma-ket qirqilib tezda saralanadi va maxsus uchastkaga olib borilib ko`miladi.

Qazib olingan ko`chatlar 25-50 tadan bog`-bog` qilib boylanadi. Meva navlari taxtachalarga qora qalamda yoziladi, ko`chat ko`miladigan joyga jo`natiladi. Ko`chatlarni tashishda ularning shox-shabballari shilinishiga yoki sinishiga va ildizining shamollashiga yo`l qo`yilmaydi. Ko`chatlar maxsus transportlarda tashiladi.

Mevali bog`larda, ayniqsa intensiv bog`larda hosildorlikni miqdori faqat nav va payvandtag uyg`unligini to`g`ri tanlash, agrotexnik tadbirlarni samarali o`tkazish bilangina emas, balki qator oralarini kengligi va ularda daraxtlarni joylashtirish masofasiga ham bog`liq.

Meva ko`chatlarini ekish uchun kavlangan 50x70 sm o`lchamda uyalarga joylashtirishda ekilayotgan ko`chatni shikastlangan va ortiqcha ildiz qismlarini o`tkir bog` qaychisida kesib tashlash ko`chatni ko`karishiga amaliy yordam bo`ladi. Ko`chatni ko`mishda belgilangan tartibda unumdor tuproqlardan tashlab, tanasini to`g`ri shakillanishi uchun maxsus tayoqchaga bo`lab qo`yiladi(1-rasm).





1-rasm. Meva ko`chatini ekish tartibi.

1-rasm.

Meva


ko`ch



tini ekish tartibi.

Daraxtlarni joylashtirishda shuni e`tiborga olish lozimki, bir gektar maydonda qancha ko`p daraxt joylashgan bo`lsa hosil ham shuncha ko`p bo`ladi. Lekin buni ham meyo`ri va chegarasi bor. Chegarani belgilab beruvchi omillar daraxtlarni hajmiga, ularga shakl berish usuliga, qator oralariga ishlov


berishda, mexanizatsiyalash darajasiga, turiga va bir qancha boshqa omillarga bog`liq.(2-rasm).



2-rasm. Ko'chatlarni joylashtirish sxemalari

2-rasm.

Ko'chatlar



i joylashtirish

sxemalari

Intensiv bog'larni tashkil qilishda ayniqsa simbag'azli bog'larni, daraxtlar ancha qalin (zich) ekilyapti. Ayniqsa zamonaviy intensiv bog'lar va ularni parvarishlashda yo'l qo'yilgan xato, ayniqsa shakl berishda, juda noxush holatlarga olib keladi. Daraxtlar judayam zichlashib ketishi oqibatida mevasini miqdoriga va ayniqsa sifatiga salbiy ta'sir etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ko'chat o'tqazish kuzda xazonrezlikdan keyin boshlanadi va doimiy sovuqlar boshlanmasdan tugaydi. Bu muddat O'zbekistonning hamma viloyatlarida ham oktabr oyining oxiridan boshlanib qattiq sovuq tushguncha davom ettiriladi. Urug'li meva daraxti ko'chatlari fevral va mart oylarida tinim davrida ekilgani ma'qul. Ko'chatlarni ekish muddatigacha ko'chatlar ko'miladigan yer kengroq bo'lishi kerak, har xil transportlarda tashib kelingan ko'chatlar rejalashtirilgan yerga tushiriladi.

Ko'chat ko'miladigan yer ko'chatlarni tarqatishdan oldin fumigatsiya qilinadigan binolarning oldida tashkil qilinadi. Kuzda yer quruqroq bo'lsa, albatta bog' qator oralariga suv qo'yiladi va yer yetilishi bilan sharqdan g'arbga qaratib, chuqurligi 50–60 sm bo'lgan ko'chat ko'miladigan xandaqlar qaziladi. Xandaqlarning janubiy tomoni 45 daraja nishabroq qilinadi va sug'oriladi. Meva tur va navlari xandaqlarga qat'iy reja asosida ko'miladi.

Ko'chat ekiladigan joy tayyor bo'lguncha ekiladigan ko'chatlar bog'ning o'rtasiga ildiziga shamol kirmaydigan qilib ko'milgach, ustidan suv sepib qo'yilishi lozim. Kuchli sho'rlangan yerlarga ko'chatlarni ko'mib qo'yish mumkin emas.

Har bir meva navini ko'mishda qoziqlar qoqiladi, unga taxtacha osilgan bo'lib, meva navlarining nomi qora qalamda yozilib qo'yiladi.

Ko'chat ko'miladigan yer qattiq shamollardan holi, sizot suvi chuqur joylashgan va sho'rlanmagan bo'lishi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R Yunusov, K.Umarov, B.Karimov. Bog'dorchilik. o'quv qo'llanma. "O'zbekiston faylasu flari milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent – 2016.

2. B.G`ulomov, Sh.Abrorov, I.Normuratov. Mevali daraxtlarga shakl berish, kesish va payvandlash. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti. Toshkent-2011.

3. Bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish: Pakana va yarim pakana (intensiv) mevali bog'larni tashkil etish, ichki va tashqi bozorlarda yuqori talabga ega bo'lgan, yuqori hosildor uzum navlarini yaratish" bo'yicha qo'llanma "Tafakkur" nashriyoti, Toshkent. 2016 yil.

4. X.A.Idrisov, A.Mukimov va boshqalar. Results of Analytical Study of Growth, Development and Grain Yield of Mung Bean (*Rhaseo1is Aireis Piper*) Varieties. International journal of special education. Vol.37, No.3, 2022. 8880-8886.

5. Z.A.Mukimov, Sh.P.Sharipov. Kombinatsiyalashgan mashina takomillashtirilgan tekislagichi tuproq suruvchi plastinalarning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatish burchagini aniqlash. Toshkent. 27 may 2022 yil.

6. Закирова С.Х., Низомиддинова М.Ш., Мукимов З.А., Жалилов Э.К. ПЕСКИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ ФЕРГАНЫ // Экономика и социум. 2021. №5-1 (84). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/peski-tsentralnoy-fergany> (дата обращения: 01.05.2023).

7. X.A.Idrisov, Z.Mukimov va boshqalar. Results of Analytical Study of Growth, Development and Grain Yield of Mung Bean (*Phaseo1us Aureus Piper*) Varieties.Turkiya.Vol.37, No.3, 2022. 8880-8886. 2022 y.

8. N.I.Teshaboyev, Mukimov Z., A.Iminchayev, Sh.Sh..Muhammadjonova. EFFECTS OF DEEP TILLAGE OF COTTON ROWS ON COTTON YIELD. 1 tom. 326-331 bet. Uzbekistan. 2021/6.

9. Mukimov, Zoxidjon Alijonovich G'O'ZA QATOR ORALARIGA BIRINCHI ISHLOV BERISHDA QATQALOQNI YUMSHATISHNING AHAMIYATI // ORIENSS. 2022. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/g-o-za-qator-oralariga-birinchi-ishlov-berishda-qatqaloqni-yumshatishning-ahamiyati> (дата обращения: 01.05.2023).

10. Teshaboyev Nodirbek, Mamadaliyev Muhammadkarim, Muqimov Zohidjon. [Natural screen sanded sands field water capacity](#). №9.11 tom. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 1080-1082. South Asian Academic Research Journals, A Publication of CDL College of Education. 2021.
11. Sh.P. Saripov, Z.Mukimov. Kombinatsiyalashgan mashina takomillashtir-ilgan tekislagichi tuproq suruvchi plastinalarning harakat yo`nalishiga nisbatan o`rnatish burchagini aniqlash. Yuqori samarali qishloq xo`jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari. T 1. 164-168 b. Uzbekistan.
12. Sotvoldiev Nozimjon Zikiryaevich, Mukimov Zohijon Alizhanovich. [Selection And Justification of the Kinematic Scheme of the Grapple Mechanism of the Loader](#). Texas Journal of Multidisciplinary Studies Texas Journal of Multidisciplinary Studies. T 15. 59-63. 2022/12/14.
13. Mukimov Z. Yerlarni joriy sho`r yuvishga tayyorlash va o`tkazish. Ilmiy habarlar. Ilmiy habarlar. T 1. 1574. Uzbekistan. 2022/12.
14. Mukimov Z. Tok o`simligini kesishning o`ziga xos xususiyati. ILMIY XABARLAR. T 1. 1599. Uzbekistan.
15. Mukimov Z. Mevali ko`chatlarni ekish ishlariga tayyorlashning ahamiyati. ILMIY XABARLAR. T 1. 1643 s. Uzbekistan.
16. Mukimov Zoxidjon Alijonovich. SABZAVOT EKINLARI KO`CHATLARINI MASHINADA EKISHNING AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. 2023/4/21. 118-121. URL: <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=1526134696840486932&btnI=1&hl=ru>